



THE INSTITUTION OF TURKIC HAJIBS IN THE ADMINISTRATIVE SYSTEM OF THE SAMANID STATE: A HISTORICAL ANALYSIS AND INTERPRETATIONS

Moxlaroy Abdukamolova

Basic Doctoral Researcher, Fergana State University

E-mail: mohlaroyabdukamolova@gmail.com

Science ID: FFR-0225-0082

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Samanid State, Turkic military aristocracy, institute of hajibs, Central Asian historiography, numismatic source studies, political life of Transoxiana and Khorasan, ghulam system, transformation of state administration.

Received: 08.08.26

Accepted: 09.08.26

Published: 10.08.26

Abstract: This article analyzes the role of Turkic hajibs in the history of the Samanid statehood and the stages of studying their activities. The research provides a comparative review of scientific studies conducted during the Russian Empire, the Soviet period, and the years of independence in Uzbekistan. Furthermore, it highlights the significance of numismatic data and written sources in illuminating this topic, while identifying existing scientific gaps.

SOMONIYLAR DAVLAT BOSHQARUV TIZIMIDA TURKIY HOJIBLAR INSTITUTINING O'RGANILISHI: TARIXIY TAHLIL VA TALQINLAR

Moxlaroy Abdukamolova

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

mohlaroyabdukamolova@gmail.com

Ilmiy identifikatsiya raqami: FFR-0225-0082

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Somoniylar davlati, turkiy harbiy aristokratiya, hojiblik instituti, O'rta Osiyo tarixnavisligi, numizmatik manbashunoslik, Movarounnahr va Xuroson siyosiy hayoti, g'ulomlar tizimi, davlat boshqaruvi transformatsiyasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Somoniylar davlatchiligi tarixida turkiy hojiblarning tutgan o'rni va faoliyatining o'rganilish bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Rossiya imperiyasi, sovet davri va mustaqillik yillarida O'zbekistonda olib borilgan ilmiy izlanishlar qiyosiy ko'rib chiqilgan. Shuningdek, numizmatik

ma'lumotlar va yozma manbalarining ushbu mavzuni yoritishdagi ahamiyati hamda mavjud ilmiy bo'shliqlar ko'rsatib o'tilgan.

ИССЛЕДОВАНИЕ ИНСТИТУТА ТЮРКСКИХ ХОДЖИБОВ В СИСТЕМЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВА САМАНИДОВ: ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И ИНТЕРПРЕТАЦИИ

Мохларой Абдукамолова

Базовый докторант Ферганского государственного университета

E-mail: mohlaroyabdukamolova@gmail.com

Научный идентификационный номер: FFR-0225-0082

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Государство Саманидов, тюркская военная аристократия, институт хаджибов, историография Средней Азии, нумизматическое источниковедение, политическая жизнь Мавераннахры и Хорасана, система гулямов, трансформация государственного управления.	Аннотация: В данной статье анализируется роль тюркских хаджибов в истории государственности Саманидов и этапы изучения их деятельности. В исследовании проводится сравнительный обзор научных изысканий, проведенных в Российской империи, советский период и в годы независимости в Узбекистане. Также подчеркивается значение нумизматических данных и письменных источников в освещении этой темы, указываются существующие научные пробелы.
--	---

Kirish. Markaziy Osiyo tarixida Somoniylar davri davlat boshqaruv tizimining shakllanishi va takomillashuvi bilan alohida o'rin tutadi. Ushbu tizimda turkiy harbiy aristokratiya, xususan, hojiblar instituti davlatning siyosiy barqarorligini ta'minlovchi asosiy kuchlardan biri bo'lgan. Mazkur mavzu uzoq yillar davomida xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar e'tiborida bo'lib kelmoqda. Dastlabki izlanishlar ko'proq arab tili manbalariga tayangan bo'lsa, keyinchalik numizmatik materiallar va mahalliy asarlar asosida mavzu yanada kengaydi. Ushbu maqolada Somoniylar davlatchiligi tarixida turkiy hojiblarning tutgan o'рни va ularning faoliyati turli davr tarixnavisligida qanday yoritilganligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda Rossiya imperiyasi davridagi dastlabki numizmatik izlanishlar, sovet davri olimlarining qarashlari va mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixshunosligida erishilgan natijalar qiyosiy ko'rib chiqilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Rossiya imperiyasida Somoniylar davlat boshqaruvi tarixi dastlab manbashunoslik va numizmatik tadqiqotlar misolida shakllanadi. Jumladan, bu davrda Somoniylar davlati tarixini o'rganish ishlarini V.A.Tizengauzen boshlab berdi. Uning "Imperator arxeologiya jamiyati" ning sharqiy bo'limiga topshirgan "Somoniylar tangalari

haqida” [11:1-238] nomli hisobot ishida dastlabki somoniy hukmdorlar Ahmad ibn Asad, Nuh ibn Asad, Ishoq ibn Asad va boshqalar to‘g‘risida numizmatik ma’lumotlar berib o‘tadi [11:83-238]. Ushbu ma’lumotlar orqali Somoniylar davrida faoliyat olib borgan turkiy hojiblariga yanada aniqlik kiritishimiz mumkin.

N.Likoshin tomonidan “Tarixi Buxoro” asarining rus tiliga tarjima qilinishi keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun zamin yaratadi [1]. Aynan shu tarjima asosida Somoniylar davlatchiligi tarixi, turkiy hojiblar faoliyati rus olimlari uchun kengroq muomalaga kiradi, shuningdek, keyingi davr olimlari shu asosda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishadi.

Mavzuga oid ilmiy tadqiqotlar orasida taniqli sharqshunos olim V.V.Bartold asarlari o‘zining ilmiy qimmatini va manbalardan maksimal darajada foydalanganligi bilan ajralib turadi. Muallif ayni mavzuga oid alohida tadqiqot olib bormagan. Lekin, O‘rta Osiyo tarixiga bag‘ishlangan asarlarida bu masalaga oid ba’zi bir qaydlar qoldirib, fikr-mulohazalar bildirib o‘tgan.

Sovet davrida olib borilgan tadqiqotlardan yana biri Y.A.Davidovich nomi bilan bog‘liq. Olima e‘lon qilgan ko‘plab maqolalari Somoniylar davridagi tanga-pul tizimi tarixini yoritishda ahamiyati beqiyosdir. Y.A.Davidovich tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar numizmatika sohasiga oid bo‘lib, yozma manbalarda uchramaydigan tarixiy shaxslarning faoliyatini yoritishda qo‘shimcha material bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotchi tomonidan 1956-yilda e‘lon qilingan “Ферганские Саманиды по нумизматическим данным” (“Numizmatik ma’lumotlarga ko‘ra Farg‘ona Somoniylari”) nomli maqolasida Farg‘onada hukmronlik qilgan somoniylar xonadoniga mansub voliyalar birma-bir sanab o‘tilgan [4:14-26]. Y.A.Davidovichning ushbu ishi numizmatikaga oid bo‘lganligi sababli, unda Somoniylar hokimiyati o‘rnatilishi arafasidagi siyosiy vaziyat, somoniylar xonadoniga mansub voliyalarning faoliyati to‘laligicha ochib berilmagan.

A.Davidovichning “Монеты Ферганы как источник для характеристики института феодальных пожалований за службу в Средней Азии в X в.” (Farg‘ona tangalari X asrda O‘rta Osiyoda xizmat uchun feodal mukofotlari institutini tavsiflovchi manba sifatida) hamda “Владельцы Насрабада (по нумизматическим данным)” (Nasrobod hokimlari (numizmatik ma’lumotlarga ko‘ra)) nomli maqolalarida ham Farg‘ona vodiysini idora etgan turkiy hojiblar faoliyati numizmatik materiallar asosida yoritiladi [5:107-114; 6:110-141].

Tadqiqotimiz doirasida sovet davrida dastlab rus tilida yozilib, keyin esa tojik tilida e‘lon qilingan ishlardan biri H.Ne‘matovning “Давлати Сомониён: тоҷикон дар асрҳои IX–X.” (Somoniyilar davlati: IX–X asrlarda tojiklar) monografiyasi bo‘lib [9:304], unda asosan Somoniylar davlatining iqtisodiy hayoti yoritilgan [9:36-118]. Ammo olimning siyosiy va

mafkuraviy qarashlari sabab Somoniylar va ularning noiblari bo'lgan turkiy hojiblar davri deyarli yoritilmagan. Faqatgina Bakr Farg'oniyni vohiyda amalda mustaqil siyosat yuritganligi eslatib o'tilgan xolos [9:103].

B.G.G'ofurov tomonidan e'lon qilingan "Таджики" [2;3] ("Tojiklar") monografiyasining har ikki kitobida ham ayrim ma'lumotlar uchraydi. Tadqiqot ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda O'rta Osiyoning qadimgi davridan ilk o'rta asrlargacha bo'lgan tarixi yoritilgan [2]. Asarning ikkinchi qismida Arab xalifaligi qo'shinlarining Xuroson va Movarounnahrda qilgan yurishlari, Somoniylar davlati ahvoli, boshqaruv institutlari, turkiy hojiblardan Bakr Farg'oni yususida umumiy ma'lumotlar keltirilgan [3].

Natija va muhokama. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ushbu mavzuning ayrim masalalariga aloqador tadqiqotlar e'lon qilingan. Ammo sharqshunos va tarixchi olimlar tomonidan ushbu muammoga doir fundamental asarlar yaratilganicha yo'q.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston davlatchiligi tarixini qayta tadqiq etish davlat siyosati darajasiga ko'tariladi. Azamat Ziyoning "O'zbek davlatchiligi tarixi" kitobi ham aynan shu siyosatga javob sifatiga yaratilgan edi. Muallif tadqiqotida hojib siyosiy elitasining vazifasi haqida qisqacha ma'lumot berib o'tadi. Ammo davlatchilik tarxini yoritgan olim sifatida Somoniylar davlat boshqaruvida hojiblarning o'rni, ularning shakllanish bosqichi va boshqa jihatlariga alohida e'tibor qarashitishi zarur edi [12:94-95].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilish Akademiyasi "O'zbekistonning yangi tarixi Markazi" tomonidan "O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat tarqqiyoti" nomli tadqiqot e'lon qilinadi [10]. Mazkur tadqiqotning I qismida Somoniylar davlat boshqaruvi, hojiblar faoliyati, Alptegin to'g'risida ma'lumotlar beradi [10:87-93]. Ammo mustaqillik yillarida amalga oshirilgan aksariyat tadqiqotlar singari Somoniylar davlatining Movarounnahr qismi tarixi bilan cheklanadi. Shundan kelib chiqib tadqiqot xulosalarini ham qayta ko'rib chiqish zarur.

Q.Usmonov, M.Sodiqov va S.Burxonova muallifligida yozilgan oliy ta'lim bakalavriati uchun yozilgan "O'zbekiston tarixi" dasligida ham Somoniylar boshqaruvi haqida qisqacha ma'lumot berib o'tiladi [16]. Darslikda Somoniylar davlati inqiroziga amirlar va Alptegin orasidagi ixtilof hamda ishonchsizlikni sabab qilib ko'rsatadi [16:121]. Ammo bu yangilish xulosa, Somoniylar inqirozining boshqa ko'plab sabablari bor.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda Shamsiddin Kamoliddin tomonidan Somoniylar davri siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va harbiy tarixi masalalariga oid ilmiy tadqiqot olib borilgan. Olimning 2012-yilda Germaniyada nashr etilgan monografiyasi Somoniylar davlati tarixini o'rganishda muhim qadam bo'ldi [7]. Asarda keltirilgan faktlar manbalardan maksimal

foydalangan holda berilganligi sababli ishonchliligi yuqoridir. Muallif Somoniylar davlati boshqaruv apparatida 80 dan ortiq turkiy hojiblarning mavjud bo'lganligini va boshqaruv tizimidagi deyarli barcha sohalar xususan, ichki tartib va davlat himoyasi ularning qo'lida bo'lganligini ta'kidlaydi. Olimning fikriga ko'ra, Abbosiylar saroyida ham Somoniylarda ham asosiy mansablar turklar tomonidan boshqarilgan. Ular ma'lum viloyatlarni boshqarishgan va o'sha yerda o'z sulolalariga asos solishgan. Nafaqat Somoniylar balki, butun arab xalifaligida turk harbiy qo'mondonlarining nufuzi baland bo'lganligini, ular xalifalarga joylardagi isyonlarni bostirishda va qo'l ostida saqlab turishda katta yordam berganliklarini, hatto, 4 mingta turk g'ulomlari bilan isyon qilib, Bag'dodga kirib borgan Baris qo'mondonni eslatib o'tadi [7:231]. Ammo asar aynan Somoniylar davridagi turkiy hojiblar faoliyatiga bag'ishlanmagan, shuning uchun ular haqida atroflicha ma'lumotlar berilgan. Qolaversa, Somoniylar davridagi Farg'ona vodiysi haqida to'xtalganda, muallif vodiyni idora etgan turkiy hojiblar va Somoniylar vakillari ketma-ketligida ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yadi [7:201].

Sh.Kamoliddinning yana bir tadqiqotida Somoniylar davlat boshqaruv tizimida turklarning ishtiroki masalasiga bag'ishlangan. Mazkur tadqiqotda mudofaa va jamoat tartibini saqlash masalalari to'liq ravishda turklar ixtiyorida ekanligi, Somoniylar xizmatidagi ko'plab turk lashkarboshilari yirik davlat va siyosat arboblari aylanganligi, ularning ayrimlari mustaqil yoki yarim mustaqil hukmdorlar sulolalariga asos solib, Markaziy Osiyoning siyosiy hayotida muhim rol o'ynaganligi kabi masalalar tahlil etilgan [8:80-87].

Tarixchi olim Bahodir Eshov tomonidan yozilgan oliy ta'limning bakalavr bosqichi uchun o'quv qo'llanmada ham Somoniylar davlat boshqaruvida hojiblarning o'rni masalasi qisqacha yoritilgan [13]. Ammo ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlarning aksariya unda aks etmagan. Biror-bir hojib nomi tilga olinagan. Umuman olganda, mustaqillik yillarida yaratilgan aksariyat darslik va o'quv qo'llanmalarda ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlar qo'shilmagan.

Mavzuga oid yanada kengroq ma'lumotlarni S.Yuldashevning izlanishlarida ham ko'rishimiz mumkin. Xususan, "Sipohsolor Bakr Farg'oniy" nomli maqolasida mintaqadagi turk harbiylari nufuzi ortishi sabablari va Farg'onada voliy sifatida faoliyat olib borgan turkiy hojib Bakr Farg'oniy, uning otasi, bobosi faoliyati va davlat boshqarishdagi ahamiyatlari ochib beriladi [15:46-49].

Tadqiqotchining "V–X asrlarda Farg'onadagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar" mavzusidagi Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasida Farg'ona mulking voliyarlari bo'lgan Somoniylar Ahmad ibn Asad, Abul A'shas Asad ibn Ahmad, Ishoq ibn Ahmad, Muhammad ibn Asad, turkiy hojiblardan Bakr Farg'oniy va Ayachteginlarning vodiylar bilan bog'liq faoliyatlariga oid sanalarga aniqlik kiritilgan

[14:3-24]. Lekin bu tadqiqot ham ko‘plab manbalar asosida yozilgan bo‘lsada, hudud jihatdan faqat Farg‘ona vodiysi bilan chegaralangan.

Sh.Jumayeva va L.Ochilboyevning maqolasida ham turkiy xalqlar davlatchiligi jaroyonini o‘rganadi. Unda turkiy xalqlar Somoniy, Qoraxoniy, G‘aznaviy, Saljuqiy va Xorazmiylar xalqlarining madaniy, ijtimoiy va siyosiy ta’siri batafsil ko‘rib chiqiladi. Maqola har bir xalqning tarixiy ahamiyati, ularning madaniyatlari va ijtimoiy tuzilmalarini tahlil qiladi [17:303-312].

Xulosa. Umuman olganda, Rossiya imperiyasi, sovet davri hamda mustaqillik yillarida Somoniylar davlatchiligi tarixida turkiy hojiblarning faoliyati aks etgan oid bir qator ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. Rossiya imperiyasi va sovet davri tarixnavisligi numizmatik ma’lumotlar hamda yozma manbalarni ilmiy muomalaga kiritish orqali mavzuning poydevorini yaratib, turkiy elitaga xos ko‘plab tarixiy shaxslarni kashf etishga xizmat qildi. Markaziy Osiyoning o‘rta asrlar tarixining ayrim masalalariga bag‘ishlangan turli tadqiqotlarda ham ayni mavzuga oid ba’zi fikrlar bildirilgan. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda mazkur masalaga oid ilmiy tadqiqotlarning aksariyatida Somoniylar davlatining faqatgina Movarounnahr qismi haqida ma’lumot berilgan, xolos. Ularning tahlili bizga mavzuni ob’ektiv yoritishga imkon beradi. Lekin ayni mavzu yuzasidan alohida tadqiqot olib borilmaganligi mavzuning dolzarbligini ko‘rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Наршахи, Мухаммад. История Бухары. Перевод с персидского Н.Лыкошин под ред. В.В.Бартольда. – Ташкент, 1897. – 126 с.
2. Гафуров Б.Г. Таджики: Древнейшая, древняя и средневековая история. Кн I. – Душанбе: Ирфон, 1989. – 378 с.
3. Гафуров Б.Г. Таджики: Древнейшая, древняя и средневековая история. Кн II. – Душанбе: Ирфон, 1989. – 490 с.
4. Давидович Е.А. Ферганские Саманиды по нумизматическим данным // ЭВ. Вып. XI. – М.–Л., 1956. – С. 14–26.
5. Давидович. Е.А. Владетели Насрабада (по нумизматическим данным) // Краткие сообщения ИИМК. Вып. 61. – Москва, 1956. – С. 107 – 114.
6. Давидович Е.А. Монеты Ферганы как источник для характеристики института феодальных пожалований за службу в Средней Азии в X в. // Письменные памятники Востока. Историко-филологические исследования. – Москва, 1969. – С. 110–141
7. Камолиддин Ш. Саманиды: из истории государственности Узбекистана IX–X вв. – Saarbrücken: Lap Lambert Academic publishing, 2012. – 465 с.
8. Камолиддин Ш. Тюрки в системе управления Саманидов // INFOLIB ахборот-кутубхона журналы, 2023, № 4 (36). – С. 80–87.

9. Неъматов Х. Давлати Сомониён: тоҷикон дар асрҳои IX–X. – Душанбе: Ирфон, 1989. – 352 с.
10. Сағдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норқулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва ҷамият тараққиёти (1-қисм). – Тошкент: Академия, 2000. – 272 б.
11. Тизунгаузен В.Г. О саманидских монетах. ТВОРАО, ч. I. – СПб, 1855. – С. 1–238.
12. Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2001.
13. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи: энг қадимги даврадан XIX аср ўрталаригача. I жилд. Тошкент.: Янги аср авлоди. 2014.
14. Юлдашев С.Б. V–X асрларда Фарғона водийсидаги сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ва маданий жараёнлар. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Андижон, 2021. – 56 б.
15. Юлдашев С.Б., Мелиқўзиев У.А. Сипоҳсолор Бакр Фарғоний // «ФарДУ Илмий хабарлари» илмий журнали. – Фарғона, 2018. – № 2. – Б. 46–49.
16. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. Darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2006. – 520 b.
17. Ochildiyev L., Jumayeva Sh. IX–XII asrlardagi turkiy xalqlar davlatchiligi taraqqiyoti (Somoniy, Qoraxoni, G'aznaviy, Saljuqiy va Xorazmiylar) // Science Shine" International Scientific Journal. 2024. – B. 303–312.